KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 8 (538) 2025-YIL, 27-FEVRAL

Qonunchilikdagi yangilik

NOTARIUS XIZMATLARI UCHUN KOMISSIYA TO'LOVLARI MIQDORI O'ZGARDI

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari aholi uchun ham, davlat hokimiyati organlari uchun ham qator qulayliklar yaratmoqda.

Shu o‘rinda o‘tgan haftada Adliya vaziri buyrug‘i bilan O‘zbekistonda notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik tusdagi qo‘shimcha harakatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning maksimal miqdorlariga o‘zgartirishlar kiritildi.

Mazkur buyruq Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan kelishilgan bo‘lib, u 2025-yil 1-martdan kuchga kiradi.

Xususan, quyidagi xizmatlar uchun komissiya to‘lovlari miqdori oshirildi:

ko‘chmas mulk va avtotransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish bo‘yicha maslahat berish, shuningdek, ipoteka va lizing shartnomalarini tasdiqlash - BHMning 10 foizidan 15 foizigacha;

notarial tasdiqlangan shartnomalarni tayyorlash:

ko‘chmas mulkni o‘tkazish bo‘yicha - BHMning 20 foizidan 30 foizigacha;

garov (ipoteka) va lizing (jismoniy shaxslar uchun yoki bir tomoni jismoniy shaxs bo‘lsa) - BHMning 15 foizidan 25 foizigacha.

Notariuslar tomonidan bajariladigan qo‘shimcha yuridik va texnik harakatlar uchun undiriladigan boshqa komissiya to‘lovlari miqdorlarini lex.uz saytida e'lon qilingan hujjat orqali ko‘rib chiqish mumkin.

"Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ma'lumot chop etish yoki texnik vositalar yordamida hujjatlardan nusxalar ko‘chirish (har bir bet uchun) - 0,5 foiz.

Hujjatlardan ko‘chirmalar tayyorlash (har bir bet uchun) - 2 foiz.

Notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik tusdagi qo‘shimcha harakatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning maksimal miqdorlarida belgilangan haq miqdoridan ortiq undirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda to‘lovlar xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar tomonidan belgilanganidan kam miqdorda undirilishi mumkin.

Notariat sohasida aholiga qulaylik yaratish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda 2024-yil iyulidan O‘zbekistonda notarial idoraga bormasdan amalga oshiriladigan notarial harakat turlari ko‘paydi. Er va xotinning umumiy mol-mulkni, shu jumladan, ko‘chmas mulkni tasarruf etish bo‘yicha bitim tuzish uchun xotin (er)ning rozilik arizasini, avtomototransport vositasini tasarruf etish (sotish, hadya, qilish, ayirboshlash, garovga qo‘yish va boshqa turdagi tasarruf qilish) ishonchnomasini, hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlashni videokonferensiya orqali (onlayn) notarial rasmiylashtirish mumkin.

"e-notarius.uz" axborot portali orqali notarial harakatlarni dunyoning istalgan joyidan turib rasmiylashtirsa bo‘ladi.

O.MIRZAYEV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi Notariat, advokatura va mediatsiya sho‘basi boshlig‘i.

RAMAZON – EZGULIK OYI

Muborak kunlar ostonasida turibmiz. Oylarning sultoni Ramazon soya solib turibdi. Mo‘min-musulmonlar uchun ham Robbimiz rahmatlari yog‘iladigan oy - Ramazon yaqinlashmoqda.



Darhaqiqat, bu oyning fayzi va shukuhi o‘zgacha. Bu oy bejiz orziqib kutilmaydi. Unda ming oylarga tatiydigan kecha bor. Bu oyda so‘zlarning eng ulug‘i - Kalomulloh nozil bo‘lgan.

Ramazonni yurtimizda ko‘tarinki ruhda, munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida Prezidentimizning qarori ham qabul qilindi. Shu hujjat asosida muborak oyning mazmun-mohiyatida mujassam bo‘lgan insoniylik, ma'naviy poklik, sabr-qanoat kabi fazilatlarni e'zozlash, bugungi tinch va farovon hayotimizni qadrlash, odamlarni bir-biriga yaxshilik qilish, ahil va hamjihat bo‘lib yashashga da'vat etadigan hamda yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, azaliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish alohida belgilandi.

Ro‘zaning juda ko‘p foydalari bor. Ramazon oyi munosabati bilan qanchadan-qancha kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olinadi, beva-bechora, yetim-yesirlarga ko‘maklar beriladi. Nega? Chunki, odam ro‘za tutib, ochning holini his etadi, tashnaning ahvolini anglab yetadi. Shu bois ularga yordam beradi. "Har bir xayrli amalga o‘n barobardan yetti yuz barobargacha savob beriladi" (Imom Tabaroniy rivoyati).

Kim Ramazon kelganidan xursand bo‘lsa va unda yomonliklardan tiyilish hamda oz bo‘lsa-da yaxshilik sari qadam qo‘yishni niyat qilsa, uning yaxshilikka erishishidan umid qilsa bo‘ladi. Ayni shu kunlar arafasida Payg‘ambarimiz alayhissalom sahobalarga quyidagi so‘zlarni aytganlari rivoyat qilingan:

ya'ni: "Ey, insonlar! Ulug‘, muborak oy sizlarga soya solib turibdi. Bu oyda ming oydan ko‘ra yaxshiroq bir kecha bor. Alloh taolo bu oyning ro‘zasini farz qildi, kechasi bedor bo‘lishni nafl qildi. Kim unda biror bir yaxshilik ila Allohga yaqinlik hosil qilsa, xuddi boshqa oylarda farzni ado qilganga o‘xshaydi. Kim unda bir farz amalni ado etsa (boshqa oylarda) yetmishta farzni ado qilgandek bo‘ladi. Bu oy sabr oyidir. Sabrning savobi jannatdir. Bu oy o‘zgalardan ko‘ngil so‘rash, mehr-muruvvat oyidir. Bu oyda mo‘min kishining rizqi ziyoda bo‘ladi. Kim u kunda biror ro‘zadorga iftorlik qilib bersa, bu uning gunohlariga mag‘firat va jahannamdan ozod bo‘lishiga sabab bo‘ladi", - dedilar. Shunda: "Ey, Allohning Rasuli! Hammamiz ham ro‘zadorga beradigan iftorlik topa olmaymiz-ku", - deyishdi. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Alloh taolo bu savobni ro‘zadorga bir yutum sut yo bir dona xurmo yo bir qultum suv bilan iftorlik qilib bergan kishiga beradi. Kim ro‘zadorni to‘ydirsa, bu uning gunohlariga kafforat bo‘ladi va Alloh taolo uni mening havzimdan sug‘oradiki, undan keyin to jannatga kirguncha chanqamaydi. Iftorlik qilib berganga ham ro‘zadorning ajridan biror narsa kamaytirilmagan holda, uning ajriga teng savob bo‘ladi. Bu oyning avvali rahmat, o‘rtasi mag‘firat, oxiri jahannamdan ozod bo‘lishdir. Kim Ramazon oyida qo‘l ostidagi (xizmatchisi)ga yengillik qilsa, Alloh taolo uni mag‘firat qiladi va uni do‘zaxdan ozod qiladi", - dedilar (Imom Bayhaqiy rivoyatlari).

Ushbu hadisdan Ramazondagi har qanday amalning ajri bir necha barobar qilib berilishini bilib oldik. Bularni yaxshi anglagan ummat peshvolari bo‘lmish sahobai kiromlar Ramazonni xuddi bir ulug‘ mehmondek kutib olar edilar.

Bu yil Ramazonda ham ezgu an'analarimiz davom etadi. Tarovehlarda, Qur'oni karim xatmlaridan so‘ng barcha masjidlarimizda yurtimizning yanada ravnaq topishi, xalqimiz turmushi farovon bo‘lishi, jannatmonand yurtimiz gullab-yashnashi uchun Yaratganga iltijolar qilamiz.

Lutfulloxon JAHONGIROV,
Xo‘jaobod tumanidagi Erkaboy Devona jome masjidi imom xatibi.

Qonunchilikdagi yangilik

YOSH TADBIRKORLARGA - IMTIYOZLI KREDITLAR

Prezidentning 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-62-son qarori imzolandi.

2025-2027-yillarda "Yoshlar biznesi" dasturi amalga oshiriladi. AT "Aloqabank" yosh tadbirkorlarga kompleks xizmatlar ko‘rsatish uchun bazaviy "yoshlar banki" etib belgilandi.

"Biznesga birinchi qadam" loyihasiga muvofiq 18-30 yoshdagi ijtimoiy soliq to‘lagan o‘zini o‘zi band qilganlarga onlayn shaklda asosiy qarzdan 2 yilgacha va foiz to‘lovlaridan 3 oygacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga sug‘urta polisi ta'minoti yoki uchinchi shaxs kafilligi asosida 100 mln so‘mgacha mablag‘lar quyidagi kredit mahsulotlari bo‘yicha imtiyozli mikroqarz sifatida ajratiladi:

tomorqalardan samarali foydalanish maqsadida ekin ekish va yetishtirish, chorvachilik, parrandachilik hamda qishloq xo‘jaligining boshqa yo‘nalishlaridagi faoliyatni amalga oshirish uchun;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirish, shu jumladan, hunarmandchilik jihozlarini sotib olish va aylanma mablag‘larni to‘ldirishga;

fan, san'at va sport yo‘nalishlarida o‘z qobiliyatini namoyon etgan iqtidorli yoshlarni hamda frilanserlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun.

"Yoshlar uchun ish o‘rinlari" loyihasi asosida YaTT sifatida faoliyat yurituvchi yosh fuqarolarga, shuningdek, ta'sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik subyektlarining yoshlarga kamida 20 ta ish o‘rni yaratishni nazarda tutuvchi loyihalariga 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 5 mlrd so‘mgacha mablag‘lar quyidagi yo‘nalishlardagi kredit mahsulotlari bo‘yicha ajratiladi:

ishlab chiqarish asbob-uskunalarini xarid qilish, qurilish ishlarini amalga oshirish, asosiy vositalarni sotib olish (shu jumladan, "sanoat ipotekasi" asosida) hamda aylanma mablag‘larga;

tijorat maqsadlarida foydalanishga mo‘ljallangan avtotransport vositalarini xarid qilish uchun;

savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini tashkil qilishga;

yoshlarni texnologiyalar kasb-hunariga o‘qitish, shu jumladan, raqamli va xorijiy tillar kabi yo‘nalishlarda ta'lim xizmatlari faoliyatini tashkil etish uchun.

Hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2025-yil 18-fevraldan kuchga kirdi.

U.XAKIMOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

«NOTARIUS MASLAHATI» SAHIFASI

YURIDIK SHAXSNING RAHBAR ORGANI TOMONIDAN QAROR QABUL QILINGANLIGI FAKTINI TASDIQLASH TARTIBINI BILASIZMI?



Bugungi kunda barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda. Notariat sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir necha bosqichli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, notariusga murojaat qilayotgan fuqarolarni ovora qilmaslik, notariat sohasida qonuniylikni ta'minlash uchun sohaga axborot texnologiyalari keng joriy etildi.

Sohaviy qonunlarga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Ana shundaylardan biri Yuridik yordam va huquqiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan "O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonundir. Mazkur qonunga ko‘ra, "Notariat to‘g‘risida"gi qonunga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Jumladan, "Notariat to‘g‘risida"gi qonunga 70-1-modda "Yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash" qo‘shildi. Mazkur moddaga ko‘ra, notarius yuridik shaxsning rahbar organi yig‘ilishini chaqiruvchi organning yoki shaxsning iltimosiga ko‘ra ushbu yig‘ilish o‘tkazilishi chog‘ida hozir bo‘ladi va yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash to‘g‘risida hamda ushbu qarorni qabul qilish chog‘ida hozir bo‘lgan ishtirokchilarning (aksiyadorlarning) tarkibi haqida guvohnoma beradi.

Notarius yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini belgilash uchun yuridik shaxsning huquq layoqatini tekshiradi, yuridik shaxs rahbar organining qaror qabul qilish borasidagi vakolatini, yig‘ilishda kvorum mavjudligini va ovozlarni sanab chiqish asosida qaror qabul qilish uchun kerakli ovozlar soni mavjudligini qonunchilikka va yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga muvofiq aniqlaydi.

Marifjon XUSANOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

HUJJATLAR NUSXALARINING VA HUJJATLARDAN OLINGAN KO‘CHIRMALARNING TO‘G‘RILIGINI QANDAY SHAHODATLANADI?

O‘zbekiston Respublikasi "Notariat to‘g‘risida"gi Qonunga ko‘ra, notariuslar amalga oshiradigan notarial harakatlardan biri hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlashdan iborat.

Mazkur xizmat olishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroni notariuslar va notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslar notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan kishilarning shaxsini aniqlaydi.

Notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan kishining shaxsi uning shaxsiga nisbatan har qanday shubhalarni istisno etadigan pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi yoxud boshqa hujjatlariga asosan aniqlanishi kerak.

Notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroning shaxsini aniqlashda notarius tegishli axborot resurslaridan foydalanadi.

Bitimlar tasdiqlab berilayotganida ularda ishtirok etayotgan fuqarolarning muomala layoqati belgilangan tartibda aniqlanadi va yuridik shaxslarning huquq layoqati tekshiriladi. Bitim vakil tomonidan tuzilgan taqdirda uning vakolati ham tekshiriladi.

Notarial tasdiqlanadigan bitimlar, shuningdek arizalar va boshqa hujjatlar notarius ishtirokida imzolanadi. Bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlar taraflar tomonidan barmoq izlarini olish yo‘li bilan tasdiqlanishi mumkin..

Bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlarni tasdiqlash jarayoni videokonferensaloqa orqali amalga oshirilishi mumkin.

Agar fuqaro jismoniy nuqsoni, kasalligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko‘ra bitim, ariza yoki boshqa hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmasa, bitim, ariza yoki boshqa hujjatni uning topshirig‘iga ko‘ra uning o‘zi va notarius hozirligida boshqa fuqaro imzolashi mumkin, bunda notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmaganligi sabablari yozib qo‘yilishi lozim. Bunday hollarda notarial harakatlarni amalga oshirish chog‘ida videoyozuv vositalaridan foydalaniladi.

Notariuslar notarial harakatlarni amalga oshirish uchun qirib o‘chirilgan yoki qo‘shimchalar kiritilgan, so‘zlari ustidan chizilgan va izoh berilmagan boshqa tuzatishlari bo‘lgan hujjatlarni, shuningdek qalamda yozilgan hujjatlarni qabul qilmaydi. Agar hujjatdagi mavjud izoh berilmagan tuzatishlar yoki boshqa kamchiliklar taqdim etilgan hujjatning maqsadi uchun ahamiyatsiz bo‘lsa, notarius bunday hujjatni notarial harakatni amalga oshirish uchun qabul qilishga haqli.

Fuqaroning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarining nusxasi shahodatlantirilmaydi, xalqaro shartnomalarda shahodatlantirilishi talab qilingan hollar bundan mustasno.

Hujjatning shahodatlanayotgan nusxasi yoki ko‘chirmasi uning asli bilan solishtirilib chiqiladi.

Shahodatlantirilgan hujjatlarning nusxasi yoki ko‘chirmasi notarial idorada qoldirilmaydi.

Sanjarbek RO‘ZIYEV,
Marhamat tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

MEROSGA BO‘LGAN HUQUQ TO‘G‘RISIDA GUVOHNOMANI BERISH TARTIBI

Merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma merosni qabul qilib olgan merosxo‘rlarga qonun hujjatlariga muvofiq beriladi. Fuqarolik Kodeksining 1112-moddasiga asosan vorislik, vasiyat va qonun bo‘yicha amalga oshiriladi. Qonun bo‘yicha vorislik vasiyat mavjud bo‘lmasa yoki butun merosning taqdirini belgilamasa, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan boshqa hollarda amalga oshiriladi. Meros tarkibiga meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan, uning o‘limidan keyin ham bekor bo‘lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar kiradi.

Meros fuqaroning o‘limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida ochiladi. Meros qoldiruvchining o‘lgan kuni u vafot etgan deb e'lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqa muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, vafot etgan deb e'lon qilish to‘g‘risidagi sudning qarori kuchga kiradigan kun meros ochilgan vaqt deb hisoblanadi. Meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi merosning ochilish joyi hisoblanadi. Agar meros qoldiruvchining oxirgi yashab turgan joyi noma'lum bo‘lsa, meros qoldiruvchiga tegishli ko‘chmas mulk yoki uning asosiy qismi turgan joy, ko‘chmas mulk bo‘lmagan taqdirda esa, ko‘char mulkning asosiy qismi turgan joy meros ochilgan joy deb hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 726-son bilan 2020-yil 18-noyabrda tasdiqlagan Notariuslar tomonidan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomani berishning ma'muriy reglamentida notariuslar tomonidan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomalar berish tartibi belgilangan.

Notariuslar tomonidan notarial harakatlar notarial idora binosida yoki murojaat qiluvchilarning talabiga ko‘ra sayyor tartibda rasmiylashtiriladi.

Guvohnoma berish notarial idora binosidan tashqarida bajarilsa, hujjatning matnida guvohnoma rasmiylashtirilgan joyning manzili ko‘rsatiladi va guvohnoma berishni rasmiylashtirish hamda imzolash jarayoni majburiy audio va videoga qayd etiladi.

Guvohnomani rasmiylashtirish jarayonini audio va videoga qayd etishda notarius va notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslar tasvirga to‘liq tushirilishi shart. Bunda, notarius tomonidan qanday turdagi notarial harakat amalga oshirilayotganligi, notarial harakat mazmuni, ahamiyati notarius tomonidan ovoz chiqarib murojaat qiluvchi(lar)ga tushuntirib berilganligi hamda hujjat matni bilan murojaat qiluvchi(lar) to‘liq tanishganligi va ularning asl maqsadiga muvofiqligini tasdiqlagan holda imzolash hamda barmoq izlarini "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimida skaner qilish jarayoni to‘liq audio va videoga qayd etilishi lozim. "Notariat to‘g‘risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda beriladi. Agar guvohnoma berish murojaat qilgan shaxs tushunmagan yoki yaxshi bilmagan tilda bajarilsa, unda hujjat matni notarius yoki murojaat qilgan shaxs taklif etgan tarjimon tomonidan og‘zaki tarjima qilinishi mumkin. Bu haqda hujjat matnida kim tomonidan tarjima qilinganligi, shaxsini tasdiqlaydigan hujjatning nomi, uning raqami, berilgan sanasi va shu hujjatni bergan organning nomi hamda matn mazmuni tushuntirilganligi ko‘rsatilishi kerak. Bunday holda murojaat qilgan shaxs o‘zi biladigan tilda ismi, familiyasi, otasining ismini to‘liq yozib, imzo qo‘yadi. Murojaat qiluvchi notarial idoraga o‘zi kelib yozma ariza bilan yoki my.gov.uz yoki e-notarius.uz axborot portallari orqali ro‘yxatdan o‘tgan holda elektron tarzda murojaat qiladi. Murojaat qiluvchi notarial idoraga bevosita o‘zi kelganda uni notarius yordamchisi, ular ham bo‘lmaganda notarius qabul qiladi va uning maqsadiga aniqlik kiritadi.

Bunda, notarius yordamchisi murojaat qiluvchini notarius qabuliga navbatga yozib qo‘yadi va bu haqda notariusni xabardor qiladi, bundan notarius qabuliga navbatga yozilgan murojaat qiluvchilar mavjud bo‘lmagan hollar mustasno. Notarius guvohnoma berishni so‘rab murojaat etgan jismoniy shaxsning muomala layoqatini u bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlaydi.

Meros ochilgan joydagi notarius merosxo‘r(lar)ning yozma arizasiga ko‘ra guvohnoma beradi.

Dilshodaxon QOBULOVA,
Baliqchi tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

KIMLAR BIRINCHI NAVBATDAGI MEROSXO‘RLAR HISOBLANADI?



O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga binoan (1118-modda) meros ochilgan paytda hayot bo‘lgan fuqarolar, shuningdek meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalari vasiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin.

Qonun bo‘yicha merosxo‘rlar vorislikka navbat tartibida chaqiriladilar.

Qonun bo‘yicha vorislikda farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari, bir tarafdan, farzandlikka oluvchi shaxs va uning qarindoshlari, ikkinchi tarafdan, tug‘ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladilar.

Farzandlikka olinganlar va ularning avlodlari farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi hamda buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari vafot etganidan keyin qonun bo‘yicha meros olmaydilar.

Farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi hamda buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari vafot etganidan keyin qonun bo‘yicha meros olmaydilar.

Qonun bo‘yicha vorislarning har bir navbati avvalgi navbatdagi merosxo‘rlar bo‘lmagan, merosdan chetlashtirilgan, merosni qabul qilmagan yoxud undan voz kechgan taqdirda vorislik huquqiga ega bo‘ladi.

Meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo‘yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo‘ladilar. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug‘ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kiradilar.

Sirojiddin IMINOV,
Qo‘rg‘ontepa tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

BANDLIK DASTURI - AMALDA

ANDIJONDA 15 MING NAFARDAN ZIYOD YOSHLARNING BANDLIGI TA'MINLANDI

Mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning muammolarini hal etish, o‘z imkoniyat va salohiyatlarini yuzaga chiqarishlariga ko‘maklashishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada Andijon viloyatida ham e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda Andijon viloyati aholisining qariyb 55 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Ularning iqtidor hamda qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar eshigi ochib berilgan.

Viloyat hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari hamda boshqa qator tashkilotlar hamkorligida yoshlarning muammolarini hal etish, bandligini ta'minlash, doimiy daromad manbaini shakllantirishga qaratilgan zarur ishlar olib borilmoqda.

O‘tgan 2024-yilning boshida viloyatdagi har bir mahallada xatlov o‘tkazilib, yoshlar yetakchilari tomonidan 15 ming 51 nafar ishsiz yoshning ro‘yxati o‘laroq, yosh tadbirkorlar safi tobora ortib bormoqda. Ko‘plab yoshlar o‘z biznesini yo‘lga qo‘yib, tengdoshlarini ish bilan ta'minlamoqda.

Masalan, Baliqchi tumani Oqqo‘rg‘on mahallasida joylashgan "Yoshlar sanoat zonasi"da yangi-yangi loyihalar ishga tushirildi, ko‘plab yoshlar o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ydi.

- Ushbu sanoat zonasidan joy olib, turk investorlari bilan hamkorlikda cholg‘u asboblari tayyorlashni yo‘lga qo‘ydim, - deydi tumanning Guravon mahallasida yashovchi yosh tadbirkor Nurbek Holiqov. - Hozircha 15 nafar kishi doimiy ish bilan ta'minlandi. Ayni kunlarda mahsulotlarimizni Turkiyaga eksport qilish harakatidamiz.

Viloyatda yoshlar bandligini ta'minlashda "Bir kontur - bir mahsulot" tamoyili asosida olib borilayotgan ishlar, dehqonchilik qilish uchun yoshlarga yer maydonlari ajratib berilganligi ijobiy natijalar bermoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga asosan viloyatda 16 ming 669 nafar yoshga jami 2 ming 517 gektar yer maydoni ajratib berildi.





Belgilangan tartibda "e-auksion" platformasi orqali o‘tkazilgan tanlovda g‘olib bo‘lib, ijaraga olingan yer maydonlariga yoshlar tomonidan 28 turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilib, 696 tonna hosil olindi. Ularning olgan jami daromadi 1 milliard 597 million so‘mni tashkil etdi.

Masalan, Qo‘rg‘ontepa tumanida 1 ming 578 nafar yoshga 232 gektar yer maydoni ajratib berilgan. Qo‘rg‘ontepalik yoshlar ana shu yerlardan samarali foydalandi.

- Ajratilgan yer maydonining 2 gektarida tengdoshlarim bilan kelishib, "Bir kontur - bir mahsulot" tamoyili asosida brokkoli karami yetishtirdik, - deydi tumandagi Yangi hayot mahallasida yashovchi Alisher Shokirov. - Mahsulotni sotishga qiynalmadik, daromadimiz ham yomon bo‘lmadi. Dehqonchilik ortidan oilamiz byudjetiga qo‘shimcha daromad kiritdik. Nasib etsa, bu yil ham astoydil mehnat qilamiz.

Viloyatda "Uychi" tajribasi asosida ham zarur ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Oltinko‘l tumani ishsizlikdan xoli hudud sifatida tanlab olingan.

O‘tgan yili tumanning 59 ta mahallasidagi ishsiz yoshlarga viloyat boshqarma va tashkilotlari rahbarlari mas'ul etib biriktirildi. Ro‘yxatga olingan 12 ming 118 nafar ishsiz yoshning bandligini ta'minlash bo‘yicha amaliy ishlar olib borildi. Natijada 11 ming 800 nafar yoki 97 foiz ishsiz yoshning bandligi ta'minlandi.

Bandligi ta'minlangan yoshlarning 7 ming 597 nafari o‘zini-o‘zi band qilgan bo‘lsa, 755 nafari imtiyozli kredit, 229 nafari subsidiya hisobidan o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ydi. Bundan tashqari, 182 nafar yigit-qiz kasb-hunarga o‘qitildi, 1 ming 369 nafar yosh o‘ziga ajratilgan yer maydonida dehqonchilik qilib, daromad oldi. Mazkur yo‘nalishdagi ishlar davom etmoqda.

Viloyatda professional ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, shuningdek, ularning istagiga qarab kasb-hunarga o‘rgatish, ta'limning keyingi bosqichiga jalb etish, bandligini ta'minlash borasida ham zarur barcha ishlar olib borilmoqda.

2023-2024 o‘quv yilida viloyatdagi ta'lim muassasalarini tamomlagan 20 ming 185 nafar yigit-qiz mehnat bozoriga kirib keldi. Ularning 13 ming 826 nafari oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari edi. Yil davomida amalga oshirilgan ishlar natijasida 20 ming 185 nafar bitiruvchining bandligi ta'minlandi.

Bir so‘z bilan aytganda, Andijon viloyatida yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan yuqoridagi kabi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bu eng avvalo, yoshlar daromadini oshirishga, ularning turmush farovonligini yuksaltirishga, pirovardida mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
Zuhriddin UMRZOQOV (foto),
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zolari.

Yashil energiya



ANDIJONDA 12 MING 826 TA QUYOSH PANELI O‘RNATILDI

Keyingi yillarda mamlakatimizda "yashil energiya"dan foydalanish, aholi xonadonlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda ishlab chiqarish korxonalariga quyosh panellari o‘rnatish, mini GESlarni ishga tushirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 27-yanvar kuni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" davlat dasturi loyihasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda mamlakatimizda qo‘shimcha yana 1 gigavatt quvvatli muqobil energiya ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni shakllantirish, shuningdek, davlat korxonalari, sanoat va xizmat ko‘rsatish majmualari hamda xonadonlarda quyosh panellari o‘rnatishni rag‘batlantirishni davom ettirilishi, buning uchun 2 trillion so‘m kredit ajratilishi ta'kidlandi.

- Viloyatda davlatimiz rahbarining ana shu tashabbuslaridan kelib chiqib, qolaversa, mazkur yo‘nalishdagi avvalgi topshiriqlar ijrosini ta'minlash, "Yashil energiya"dan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, mavjud energiya resurslarini tejash, ayniqsa, quyosh panellari o‘rnatish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Andijon hududiy filiali rahbari Sardorbek Yusupov. - Jumladan, 2023-2024-yillar davomida viloyatda umumiy quvvati 87 607,1 kVat quvvatga ega 12 ming 826 ta quyosh panellari o‘rnatildi.

O‘tgan davr mobaynida 1 ming 626 ta ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralariga quvvati 23 ming 168 kVatli, tadbirkorlik subyektlari bino va inshootlariga quvvati 26 ming 835 kVatli, 12 ming 826 ta aholi xonadoniga 87 ming 607 kVatli, 33 ta ko‘p qavatli uylarga 268 kVatli quyosh panellari o‘rnatildi.

Quyosh panellari o‘rnatilgan yuqoridagi obyektlar bojxona "Yashil energiya" platformasi ro‘yxatidan o‘tkazildi.


Bundan tashqari, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Andijon hududiy filiali tomonidan 2024-yilda quyosh panellari o‘rnatilgan xonadon va xo‘jalik subyektlari bilan o‘z ehtiyojidan ortiq elektr energiyasini sotib olish bo‘yicha shartnomalar tuzildi. Ya'ni o‘tgan yil davomida 263 nafar fuqarodan sotib olingan 1 ming 644 kVat, 442 ta xo‘jalik yurituvchi subyektdan sotib olingan 10 ming 280 kVat energiya uchun shartnomada belgilangan narxlar bo‘yicha to‘lovlar to‘lab berildi.

"Yashil energiya"dan foydalanishni keng targ‘ib etish maqsadida tadbirkorlik subyektlari va aholi vakillariga quyosh panellari o‘rnatilganda beriladigan imtiyozlar, uning qulaylik va afzalliklarini tushuntirishga qaratilgan seminarlar, turli targ‘ibot tadbirlari doimiy ravishda o‘tkazilmoqda.

Andijonda muqobil energiyadan foydalanish, quyosh panellari o‘rnatish borasidagi ishlar joriy yilda ham izchil davom ettirilishi belgilangan.

F. UBAYDULLAYEV,
Z. UMRZOQOV (surat),
O‘zA muxbirlari.

TADBIRKORLIK



GULCHILIK - GO‘ZALLIK, HAM DAROMAD

Gullar hammaga yoqadi. Lekin shunday ishqibozlar borki, gullar haqida soatlab gaplashsangiz ham zerikmaysiz. "Andijon gullari bog‘i" gulchilik klasterining rahbari Nodiraxon Nasriddinova bolaligidan gulchilikka qiziqadi. Bog‘da, hovli va uy devorlariga chirmashib o‘sadigan noyob atirgullari bor. Yigirma yildan beri turli hududlardan urug‘lar, kurtaklar, qalamchalarni olib kelib sotish bilan birga, qo‘shnilar, tanishlariga ham hadya etadi. Ular ham bu sevimli mashg‘ulot bilan shug‘ullanib, gul sevuvchilar safi kengayishini istaydi. Uch-to‘rt yildirki, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirib, gul va ko‘chat yetishtirish bilan shug‘ullanib kelmoqda.

- "Yangi Andijon" massivi yirik loyihalardan biri bo‘ldi, - deydi Nodiraxon Nasriddinova. - Ushbu massivni gulzorga aylantirish mas‘uliyati yuklangandi. Shu kungacha 30 turdagi 20 ming tup gul, manzarali daraxt ko‘chatlarini ekdik. Ular yilning to‘rt faslida ham gullab, shahar ko‘rkiga-ko‘rk qo‘shib turibdi. Har bir gulga yo‘lovchilar mehr bilan qarab o‘tadi. Go‘zallik shaydolarga shu gullardan ilhomlanib, o‘zlarining bog‘i, hovlisi va uylarida ham gulzor yaratishga kirishadi.

Gulchilik ham kasb. Mazkur klaster ishchilari nafaqat vodiy, balki respublikamizning turli hududlarida ham gul biznesini rivojlantirish uchun yirik loyihalarga qo‘l urgan. Andijon, Farg‘ona, Namangan, Qo‘qon va Toshkent shaharlarida barpo etgan yashil makonlari xorijlik sayyohlarini ham o‘ziga tortmoqda.

- Gulchilikning o‘ziga xos qiyinchiliklar bor. Chunki siz gulga qanday g‘amxo‘rlik qilishni bilishingiz, mahsulot ustida doimo ishlashingiz kerak, - deydi tajribali tadbirkor. - Asosan Turkiya, Italiyadan ko‘chat, urug‘ olib kelganimiz bilan ular mamlakatimiz iqlimiga moslashi uchun gulchilik sir-sinoatidan xabardor bo‘lish kerak. Keling, atirgulni olaylik, oddiy odam uchun atirgul Italiyada ham atirguldir. Nozik didli buyurtmachiga italyan atirgullaridek mahsulot yetkazib bersakkina, biznesimiz muvaffaqiyat qozonadi. Buning uchun maxsus laboratoriyamiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Har bir gulga ilmiy tomondan yondoshamiz.

Inson o‘z kasbini sevsa, uni mehr bilan amalga oshirsa o‘ziyam mehnatidan zavqlanadi, boshqalarga ham go‘zallik va hayrat ulashadi. Gulchilikda o‘z biznesini yo‘lga qo‘yib, qancha opa-singillarimizni ish bilan ta‘minlagani uchun Nodiraxon Nasriddinova "Shuhrat" medaliga munosib topilgan. "Yil ayoli - 2024" respublika ko‘rik-tanlovida g‘olib bo‘lgani yosh gulchilarni tarbiyalashga ham turtki bo‘ldi.

- Mavsum paytida ishchilarimiz soni ming nafardan ortadi, - deydi Gulchi opa. - Gullar yetishtirib daromad topayotganlarning ko‘pi shu sohada o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘-yishni xohlashadi. Shu talablardan kelib chiqib Andijon, Namangan, Farg‘ona, Toshkent, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida o‘quv kurslari tashkil etganmiz. Unda gul va ko‘chatchilik yetishtirishning sir-asrorlaridan tortib, shu ish ortidan daromad topishgacha bo‘lgan jarayonni o‘rgatamiz.

Odatda, buyuk ishlar asoschilariga toshdan haykal qo‘yib, nomini abadiylashtiradi. Qaydaki, ko‘zni quvnatib dillarni shodlantiradigan yashil makonga ko‘zingiz tushsa bilingki, u maqolamiz qahramoniga qo‘yilgan go‘zallik ramzi. Bir gulchi ayol uchun bundan ortiq baxt bo‘lmasa kerak!

Saminjon HUSANOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

Shogirdi Juzjoniy bilan Rayga yetib kelgan Ibn Sinoga bu shahar yog‘gan bo‘lsa ham, undan oqib o‘tadigan anhorning suvi salomatlik uchun ma'qul emasligini darhol his etdi. Bu kanal suvi Suron daryosidan olinardi, aytishlaricha, imom Husaynning qoniga botgan qilichni mana shu daryoda chayib olishgan ekan.

Shoh Qobusning qo‘lidan Rayni tortib olgan Faxr ud-Davla vafot etgach, beva qolgan Saida shahar va uning atrofini boshqarib kelardi. U arablarga bo‘ysunmagan Gilonda yashovchi daylamit elidan edi. Ibn Sinoni ochiq chehra bilan qarshilab, o‘ziga vazir etib tayinlashga qaror qilgan Saida mehmonning iltimosiga ko‘ra, uning bu yerga kelganini ovoza qilmay shaharning odamlar siyrak qismidan ijaraga joy topib, tirikchiligi uchun zarur mablag‘ bilan ta'minlab turdi. Ibn Sino Mahmud G‘aznaviydan qochib yurardi. Saida esa sulton bu yerga ko‘z olaytirishidan hadiksirardi. Ikkisini bitta dushman birlashtirgandi.

Ibn Sino tabib sifatida hech kimni qabul qilishni istamasdi. Qo‘shnilar bilan ham aloqa yo‘q, xizmatga yollangan mahalliy boshi ochiq ayollar oldida ham ikkisi deyarli bir-birlarining nomini tilga olishmasdi.

Ibn Sino shogirdi Juzjoniy bilan "Tib qonunlari" asarining birinchi jildini tayyorlay boshlashgandi. Olim yozardi, shogirdi esa bu qoralamalarni chiroyli xat ila oqqa ko‘chirib, kitob shaklida tikib qo‘yardi. Qo‘lyozmalar solinadigan xurjun ko‘zlari to‘lib bormoqda. Saida tavsiya qilgan qarindoshlarini "uzoqdan kelgan nomsiz tabib" sifatida uylariga borib davolagani uchun, Ibn Sino shaharning qaysi qismida yashashini ham bilishmas, ammo ich-ichlaridan o‘zlarini u davolaganiga ishonishardi.

Ammo Ibn Sinoning Rayga kelgani sir bo‘lib qolmadi.

NOZIK MAKTUB

(hikoya)

Olloyor BEGALIYEV

Sulton Mahmudga bu xabar yetkazilganida u quvonib ketdi. U o‘z saroyida davrning yetuk faylasuf shoirini ko‘rishni necha yillardan beri orzu qilib kelardi. Abu Rayhon Beruniy g‘aznaviylar saroyining muhtasham gavhari. Uning yoniga Ibn Sino ham qo‘shilsa…

U darhol Saidaga maktub yubordi: "Sendan talabim shuki, masjidlarda mening nomimga hutba o‘qitgin va tangalar zarb ettirgin. Shunday qilmasang, Rayga o‘zim borishimga to‘g‘ri keladi". Agar Saida bu taklifini rad etsa, shu bahonada Rayga yurish uchun shayxul islomdan fatvo olish ham qiyinmas.

Saida tezda Ibn Sinoning huzuriga maxfiy tarzda yetib bordi va unga maktubni ko‘rsatib, shunga mos bir javob maktubi yozishda yordam berishini so‘radi. Ibn Sino biroz o‘ylanib, maktub qoralamasini bitdi: "Erim tiriklik payti Sizning bosib kelishingizdan xavotirda yashardim. Erim o‘ldi-yu, bu xavotir mendan aridi. Men Sizni oqil sulton sifatida hurmat qilaman. Oqil kishilar ayollarga qarshi jangga chiqmaydi. Mabodo, bosib keladigan bo‘lsangiz, jon-jahdim ila jang qilaman. Xudoyim qo‘llab, jangda ustun kelsam, yuzlab hukmdorlarni yenggan Sulton Mahmud bir bevadan yengilibdi, degan ovoza har tomonga tarqalib ketadi va men bunday sharmisorlikni dushmanimga ham ravo ko‘rmagaymen. Mabodo, yengilsam, buning men uchun hech qanday isnodli, Siz janobi oliylari uchun hech qanday maqtanadigan tarafi yo‘qdir".

Ibn Sino Saidadan bir xaltacha oltin olgan zahoti, shogirdiga vaziyatni tushuntirdi, tezda yo‘l tadorigini ko‘rishib, Raydan chiqib ketishdi.

Maktub Sulton Mahmudga yetib kelishi bilan Ibn Sinoning Rayda ekaniga shubha qolmadi. Bu o‘jar shoirga Mahmudning xusumati yo‘qligini tushuntira oladigan biror kimsa bormi? Bor bo‘lganida ham, uning maktubini topshirish uchun aniq manzili bo‘lishi kerak. Abu Rayhon tomonidan yozilgan maktublar ham egasiga yetmay qaytib kelayotgan bo‘lsa… Ammo Saidani baribir jazolash lozim!

Nihoyat, Saidadan o‘ch olish fursati yetib keldi.

Ibn Sino Juzjoniy bilan Qazvin tomonni ko‘zlab ketayotgan payti, shahzoda Majid ud-davlat onasidan Rayni tortib olgani haqida xabarni eshitdi va Sulton Mahmud uchun yaxshi bir imkoniyat paydo bo‘lganini his qildi. Beva ayolga qarshi qilich ko‘tarmagan sulton aqli noraso shahzodani bir hamlada bir yoqli qila oladi.

Ray shahrida esa isyon yetilibdi. Saida tarafdorlari uning o‘g‘liga qarshi bosh ko‘tarishibdi, tog‘dagi qal'ada mudofaaga shaylangan ona va shahzoda poytaxtga qaytib kelishibdi. Shams ud-Davla esa Hamadonga qochib ketibdi va o‘zining mustaqil viloyatini e'lon qilibdi.

Sulton Mahmud yo‘lning yarmidan qaytishga majbur bo‘ldi. Saidaning o‘sha maktubi esiga tushdi. Uyaldi. Yonida ketayotgan otliq bosh vaziri Maymandiyga dedi: "Taqdir qilmasa, qiyin ekan…"

Bu paytda Ibn Sino Qazvinga kirib bordi.

"O‘zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2023-yil 27-son

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Найзақайрағоч кўчаси, 41/А уйда яшаб, 2024 йил 7 февраль куни вафот этган марҳум **БУСАКОВ АБДУРАХМАН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шох кўчаси, 30/А уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Пистамозор кўчаси, 121 уйда яшаб, 2015 йил 18 июль куни вафот этган марҳума **ТОЖИБОЕВА МАЙРАМХОН ШИРАЛИЕВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур кўчаси, 1/А уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Г.Х.Киргизбаев нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1994 йил 19 ноябрь куни вафот этган марҳум **РАХМАНОВ ОДИЛЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Оқ бош МФЙдаги уйда яшаб, 2012 йил 28 январь куни вафот этган марҳума **КАРИМОВА ХОНЗОДА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И. Алиев нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Миришкор МФЙ, Ю.Бешкапа кўчасидаги уйда яшаб, 2016 йил 27 февраль куни вафот этган марҳума **САРИКОВА ТОЖИБАРХОН,**

Марҳамат туманидаги уйда яшаб, 2018 йил 9 декабрь куни вафот этган **TURSUNOV ALIMJON**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобуршоҳ кўчаси, 38 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Анорзор МФЙ, Семурғ кўчасидаги уйда яшаб, 2006 йил 5 август куни вафот этган марҳум **ҚИРҒИЗОВ РАЗЗАҚБЕРДИ,**

Избоскан тумани, Гуркиров МФЙ, Зиёкор кўчаси, 139 уйда яшаб, 2023 йил 1 октябрь куни вафот этган марҳум **АБДУРАХМОНОВ ЭРКИН ТУРГУНОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2024 йил 10 октябрь куни вафот этган марҳум **ОРИПОВ ИСМОИЛ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Гулистон паст қишлоқ МФЙда яшаб, 2023 йил 22 май куни вафот этган марҳум **ЖАББОРОВ ТОЛИБЖОН КОМИЛЖОНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Қорасув шаҳар, Мустақилликнинг 15 йиллиги МФЙ, Мустақиллик кўчаси, 8 уйда яшаб, 2023 йил 14 апрель куни вафот этган марҳума **MADAMINOVA TURSUNOY MAMAJONOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа шаҳар, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.А.Зайнобиддинов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қашқар МФЙда яшаб, 2020 йил 10 декабрда вафот этган марҳум **ИБРАГИМОВ ТАХИРЖАН,**

Шаҳрихон тумани, Терактаги МФЙда яшаб, 2025 йил 3 февралда вафот этган марҳум **ШАМАТОВ ТУРСУНАЛИ КАМБАРАЛИЕВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Ахмадбек МФЙда яшаб, 2019 йил 18 майда вафот этган марҳум **НУРМАТОВ БОЗОРВОЙ,**

Шаҳрихон тумани, Янги замон МФЙда яшаб, 2021 йил 11 апрелда вафот этган марҳум **НАЗАРОВ ҚИРҒИЗАЛИ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қалача МФЙда яшаб, 2024 йил 29 сентябрда вафот этган марҳум **MO'YDINOV QURBONALI MAXSUTALIYEVICH,**

Шаҳрихон тумани, Бешмаҳалла МФЙда яшаб, 2022 йил 28 августда вафот этган марҳум **MAMAJONOV ABDULXOMIT**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo'limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 26.02.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 26.02.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000128. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li